



2025-YIL UCHUN MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR PROGNOZI

Chorshanbayev Umurzoq

Guliston davlat universiteti

ORCID: 0009-0006-1254-535X

umurzokchorshanbayev@gmail.com

Abdumo'minova Zaxro

Guliston davlat universiteti

ORCID: 0009-0005-8747-080X

abdumuminovazahro01@gmail.com

Egamnazarova Aziza

Guliston davlat universiteti

ORCID: 0009-0008-1230-3005

egamnazarovaaziza17@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolamizda global va mahalliy iqtisodiy o'sish, inflyatsiya, ish bilan ta'minlanish, investitsiyalar va boshqa makroiqtisodiy o'zgarishlar tahlil qilinib, maqola iqtisodchilar tomonidan amalga oshirilgan prognozlar va tahlillarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, iqtisodiy siyosat, jahon savdosi va texnologik yangiliklarning iqtisodiy rivojlanishga qanday ta'sir ko'rsatishi kutilayotganligi ham ko'rib chiqildi. Maqolada iqtisodiy tahlil va global inqirozlar, barqaror o'sish strategiyalari, ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash yo'llari haqida fikrlar keltirilib o'tildi. 2025-yil uchun makroiqtisodiy prognozlar davlatlararo hamkorlik, global iqtisodiyotning yangilanishi va yangi texnologiyalarning iqtisodiy ta'siri haqida so'z boradi. Bazis yildagi ko'rsatkichlarga nisbatan joriy yilgi ko'rsatkichlar tahlili ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy prognozlar, ijtimoiy rivojlanish, iqtisodiy o'sish, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, iqtisodiy tahlil, texnologik rivojlanish, byudjet xarajatlari, barqarorlik strategiyalari.

ПРОГНОЗ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ НА 2025 ГОД

Чоршанбаев Умурзоқ

Гулистанский государственный университет

Абдумоминова Захро

Гулистанский государственный университет

Егамназарова Азиза

Гулистанский государственный университет

Аннотация. В этой статье представлены прогнозы глобального и местного экономического роста, инфляции, занятости, инвестиций и других макроэкономических событий. В этой статье анализируются экономические изменения, ожидаемые в 2025 году, включая прогнозы и анализ экономистов. В нем также рассматривается, как экономическая политика, мировая торговля и технологические инновации, как ожидается, повлияют на экономическое развитие. В статье представлен экономический анализ и взгляды на глобальные кризисы, стратегии устойчивого роста, создание рабочих мест и способы обеспечения экономической стабильности. Макроэкономические прогнозы на 2025 год касаются межгосударственного сотрудничества, обновления мировой экономики и экономического влияния новых технологий.

Ключевые слова: экономические прогнозы, социальное развитие, экономический рост, макроэкономические показатели, экономический анализ, технологическое развитие, бюджетные расходы, стратегии стабильности.

FORECAST OF MACROECONOMIC INDICATORS FOR 2025

Chorshanbaev Umurzok

Gulistan State University

Abdumo'minova Zahro

Gulistan State University

Egamnazarova Aziza

Gulistan State University

Abstract. This article provides forecasts for global and domestic economic growth, inflation, employment, investment, and other macroeconomic developments. This article analyzes the expected economic developments in 2025, including forecasts and analyses made by economists. It also considers how economic policy, world trade, and technological innovations are expected to affect economic development. The article provides economic analysis and views on global crises, sustainable growth strategies, job creation, and ways to ensure economic stability. The macroeconomic forecasts for 2025 discuss interstate cooperation, the renewal of the global economy, and the economic impact of new technologies.

Keywords: economic forecasts, social development, economic growth, macroeconomic indicators, economic analysis, technological development, budget expenditures, sustainability strategies.

Kirish.


Dunyodagi murakkab va noaniq vaziyat, jahon iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashuvi sharoitida O'zbekiston iqtisodiyoti barqaror o'sish sur'atlarini saqlab kelmoqda. Byudjet loyihasining asosini tashkil etuvchi va nashrning birinchi bo'limida keltirilgan 2025-yilga mo'ljallangan pragnozga ko'ra, iqtisodiy o'sish sur'ati 6% ni tashkil etadi. 2026-2027 yillarda iqtisodiy o'sish sur'atlari mos ravishda 6,1% va 6,3% gacha oshishi kutilmoqda.

2025-yilgi Davlat byudjeti xarajatlari 344576 mlrd.so'm miqdori rejalashtirilgan bo'lib, uning 52% ni ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Foydalanuvchilarga byudjet mablag'larini sarflashning asosiy yo'nalishlariga qo'shimcha ravishda byudjet xarajatlarini vazirlik va idoralarning rivojlantirish dasturlari kesimida iqlim o'zgarishlariga ta'siri bilan bog'liq ma'lumotlar taqdim etmoqda. Fiskal barqarorlikni ta'minlash maqsadida byudjet taqchilligini kamaytirish o'rta muddatli istiqbolga mo'ljallangan fiskal siyosatining bosh maqsadlaridan biri bo'lib kelmoqda. 2025-yilda Konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligi 49,3 trln.so'm yoki YaIM ga nisbatan 3% ni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.(O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi)

Davom etayotgan geosiyosiy kengliklar, global iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashuvi va yuqori inflyatsiya sharoitida O'zbekiston iqtisodiyoti barqarorligicha kelmoqda. Pragnozlarga ko'ra, 2025-yilda iqtisodiy o'sish sur'ati 6,0% ni tashkil qiladi. Kelgusi ikki yilda iqtisodiy o'sish 2026-yilda 6,1% ga, 2027-yilda esa 6,3% ga yetishi kutilmoqda.

Quyidagi rasmda 2023-yildan 2027-yilgacha bo'lgan YaIM hajmining o'sish sur'atlari ko'rsatilgan. Ko'rinib turganidek, dastlabki yildan boshlab raqamlar sekin astalik bilan yuqorilashib boravergan, 5 yil mobaynida 933,1 trln.so'mga ko'tarilgan. Demak, mamlakatimizda yildan yilga Yalpi ichki mahsulot hajmi o'sib bormoqda.

Inflyatsiya darajasini pasaytirish iqtisodiy siyosatining ustuvor maqsadi bo'lib kelmoqda. XVJ ekspertlarining fikricha, global inflyatsiya barqaror ravishda pasaytirishda davom etadi, biroq aksariyat 2027-yilgacha maqsadli ko'rtagichlariga qayta olmaydi.



1-rasm. 2023-2027 yillarda YaIM hajmi va o'sish sur'atlari ko'rsatkichlari tahlili


O'zbekistonda 2024-yil yakunlariga ko'ra inflyatsiya darajasi 9% atrofida bo'lishi kutulmoqda. Bularning barchasi inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichlar pragnozini tashqi xatarlar va ichki omillar ta'siri hisoblanadi.

1-jadval

2023-2027 yillarda inflyatsiya darajasi

	2023	2024(kutilayotgan)	2025(prognoz)	2026(prognoz)	2027(prognoz)
Inflyatsiya	8,8	9	7	5-6	5

Tovarlar va xizmatlar tashqi savdo aylanmasi o'sishda davom etdi. 2025-yilda prognoz 71,2mlrd AQSH dollarini tashkil etadi yoki 2024-yilda kutilayotgan 6% ga ortiqdir.



2-rasm. Inflyatsiya darajasi

Ushbu rasmda keltirilgan ko'rsatkichlarni tahlil qiladigan bo'lsak, 2023-yildan 2027-yilgacha bo'lgan inflyatsiya darajasi ko'rsatilgan. Dastlabki yilda inflyatsiya darajasi 8,8% ga teng bo'lgan. 2024-yilda 0,2% ga o'sgan. 2025-yilda esa 7% ga pasayishi kutilmoqda. Kelasi yilga kelib, bu ko'rsatkichdan 2% ga pasayishi prognoz qilingan. 2027-yilda ham xuddi shu 5% ga pasayishi rejalashtirilgan.

Adabiyotlar sharhi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi iqtisodiy rivojlanish va davlat siyosati qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. 2025-yil uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlashda bir nechta metodologik yondashuvlar va tadqiqotlar mavjud. Ular, asosan, iqtisodiy o'sish, inflyatsiya, ish o'rinlari yaratish, tashqi savdo balanslari va boshqa asosiy ko'rsatkichlarni hisoblashga qaratilgan. Quyida 2025-yil uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlashga oid asosiy adabiyotlar tahlil qilinadi. Kuznetsov va Sokolov (2019) o'zlarining tadqiqotlarida iqtisodiy o'sishning asosiy omillarini tahlil qilib, prognozlarning aniq va ishonchli bo'lishi uchun murakkab tizimli yondashuvlar zarurligini ta'kidlaydilar. Markova (2021) o'zining tadqiqotida 2025-yilga mo'ljallangan iqtisodiy prognozlarni simulyatsion model asosida amalga oshirishda xatoliklarni minimallashtirish yo'llarini ko'rsatadi. 2025-yil uchun makroiqtisodiy prognozlarni tahlil qilishda iqtisodiy o'sishning asosiy omillarini, ayniqsa resurslar va texnologiyalarni hisobga olish muhimdir. Kogan va Kravchenko (2020) o'zlarining ishlanmalarida resurslar va texnologik yangiliklar orqali o'sishning yangi modellarini taklif qiladilar. Ularning fikricha, resurslarning samarali boshqarilishi va texnologik yangilanishlar 2025-yilda iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan bo'lishi kutilmoqda. 2025-yilda inflyatsiya va pul-kredit siyosati ko'rsatkichlari iqtisodiy prognozlarda asosiy o'rin tutadi. Khokhlov (2022) tadqiqotida inflyatsiya va valyuta kursining o'zgarishi iqtisodiy barqarorlikka ta'sir qiluvchi omillar sifatida keltiriladi. Xususan, pul-kredit siyosatining o'zgarishi inflyatsiya prognozlarni aniqroq belgilashga yordam beradi. Ishsizlik va bandlik masalalari ham 2025-yil uchun makroiqtisodiy prognozda e'tiborga olinishi kerak. Gritsan va Timofeeva (2020) ish bilan ta'minlashning prognozlari bo'yicha tadqiqotlar olib borganlar. Ular, global pandemiya va iqtisodiy inqirozlar sababli ish o'rinlarining kamayishi mumkinligini ta'kidlaydilar, lekin shuningdek, yangi texnologiyalar va raqamli iqtisodiyot sohasida yangi ish o'rinlarining paydo bo'lishi kutilmoqda. Xorijiy iqtisodiy ta'sirlar ham 2025-yilda makroiqtisodiy prognozlarda uchun muhim ahamiyatga ega. Xitoy va AQSh iqtisodiyoti, shuningdek, global energiya bozoridagi o'zgarishlar, mamlakatlar o'rtasidagi savdo va investitsiyalarni ta'sir qilishi mumkin. Shuningdek, Vasilenko (2023) o'zining tadqiqotida global iqtisodiy aloqalar va tashqi savdo balansining 2025-yilda qanday shakllanishi haqida fikr yuritadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqola 2025-yil uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlashga bag'ishlangan bo'lib, iqtisodiy rivojlanishning turli jihatlarini tahlil etadi. Maqolada, iqtisodiy o'sish, inflyatsiya, bandlik, tashqi savdo balanslari va boshqa asosiy ko'rsatkichlarning prognozini ishlab chiqish uchun qo'llaniladigan metodologiyalar va yondashuvlar muhokama qilinadi. Tadqiqotda matematik modellar, vaqt seriyalari prognozi, ekonometrik tahlil, simulyatsiya metodlari va ekspert baholari singari metodlar integratsiya qilinadi.

Maqola, 2025-yilda global va mahalliy iqtisodiy omillarni hisobga olish orqali, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy farqlarni, resurslar va texnologiyalar rivojlanishini, pul-kredit siyosatini, inflyatsiyani va ish o'rinlari yaratish masalalarini tahlil qiladi. Bunda, iqtisodiy o'zgarishlarni aniqlash uchun zamonaviy tahlil usullaridan foydalanilgan va prognozlarni shakllantirishda metodologik yondashuvlarning samaradorligi ko'rsatilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

2025-yil uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi, mamlakat iqtisodiyotining umumiy rivojlanishiga, global iqtisodiy o'zgarishlarga, siyosiy va ijtimoiy faktorlarga asoslanadi. Ushbu prognozlar turli faktorlarni hisobga olib, iqtisodiy o'sish, inflyatsiya darajasi, ishsizlik, va davlat byudjeti kabi muhim ko'rsatkichlarning kelajakdagi holatini baholashga yordam beradi. Quyida keltirilgan tahlil, 2025-yil uchun eng muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishni maqsad qiladi.

1. Iqtisodiy o'sish prognozi

2025-yilda global iqtisodiyot o'sishining umid qilinayotgan darajasi, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy integratsiya va yangi texnologiyalarni joriy etishning natijasida o'zgarishi kutilmoqda. O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning ijobiy tendentsiyasi davom etishi prognoz qilinmoqda. Biroq, globallashuvning ta'siri va geosiyosiy ziddiyatlar, xususan, energiya resurslari narxining o'zgarishi, iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Umumiy o'sish sur'ati taxminan 4-5% oralig'ida bo'lishi mumkin.

2. Inflyatsiya va narxlar barqarorligi

Inflyatsiya darajasi, asosan, global energetika bozorlaridagi o'zgarishlar, ichki ishlab chiqarish narxlarining oshishi va talabni boshqarish orqali shakllanadi. 2025-yilda O'zbekistonning inflyatsiya darajasi 8-10% atrofida bo'lishi kutilmoqda. Bu, asosan, tovarlar va xizmatlarning narxlarini ortishi hamda ichki iqtisodiy faollikning oshishi bilan izohlanadi.

3. Ishsizlik va mehnat bozori

Ishsizlik darajasi, odatda, iqtisodiy faollikning pasayishi bilan oshadi. 2025-yilda ishsizlik darajasi global iqtisodiy o'zgarishlarga qarab, 5-7% atrofida bo'lishi mumkin. O'zbekistonning mehnat bozori, yoshlarning ishga joylashuvi va professional malakalarni oshirishga qaratilgan strategiyalarni amalga oshirishda davom etishi kerak. Kichik va o'rta biznes sektori ham yangi ish o'rinlarini yaratish uchun muhim rol o'ynaydi.

4. Davlat byudjeti va qarz

2025-yilda davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi balansni saqlash masalasi muhim bo'ladi. Davlat qarzining oshishi inflyatsiyaga va iqtisodiy barqarorlikka ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aholi va iqtisodiy sektorlarga investitsiya jalb qilish, ichki ishlab chiqarishni rag'batlantirish hamda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun muhimdir.


2-jadval

2023-2027 yillarda tashqi savdo balansi, mln. AQSH dollari

№	Yillar	2023	2024	2025	2026	2027
1	Eksport	24 869	28 289	30 377	33 877	37 877
2	Import	38 659	39 120	40 802	42 720	44 941

Ushbu ko'rsatkichda mamlakatimizdagi tashqi savdo balansi aks ettirilgan. Dastlabki yilda, eksport hajmi 24 869 mln AQSH dollari bo'lgani aks ettirilgan. 2024-yilda 28 289 mln AQSH dollari ko'tarilgan. Keyingi yillarda esa 30 377 mln, 33 877 mln, 37 877 mln AQSH dollari ga o'sib brogan. Bu raqamlarning o'sib borganligi, mamlakatimizning eksport hajmini ham o'sganini ko'rsatadi.

Import hajmi 2023-yilda 38 659 mln AQSH dollari dan boshlanib, 2024-yilda 39 120 mln AQSH dollari, 2025-yilda 40 802 mln AQSH dollari, 2026-yilda 42 720 mln AQSH dollari, 2027-yilga kelib 44 941 mln AQSH dollarga ko'tarilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, import hajmi ham yildan yilga ko'tarilgan. Bu raqamlar ko'payib borar ekan, mamlakatimizning tashqi savdo aylanmasi, aloqalari rivojlanib boradi.



3-rasm. 2023-2027 yillarda tashqi savdo balansi, Mln. AQSH dollari

2025- yil uchun Davlat byudjeti daromadlari 308 547 mlrd. so'm yoki Yalpi ichki mahsulotning 19,0 % miqdorida prognoz qilinmoqda. (2024 yilda 271048 mlrd. so'm yoki YaIM ning 19,2%).

Xulosa va takliflar.

2025-yil uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi iqtisodiy rivojlanishning istiqbolini belgilab beradi va davlatlar va iqtisodchilar uchun muhim ahamiyatga ega. Bu prognozlar mamlakatning yalpi ichki mahsuloti (YIM), inflyatsiya darajasi, ishga joylashish darajasi, davlat qarzi, valyuta kurslari va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. O'zbekistonning 2025-yil uchun makroiqtisodiy prognozi, asosan, iqtisodiy barqarorlik, investitsiyalarni jalb qilish, yangi ish o'rinlari yaratish va ijtimoiy farovonlikni oshirishga yo'naltirilgan. Shuningdek, iqtisodiy o'sish sur'atlari, eksport salohiyati va global bozor sharoitlari ham inobatga olinadi.

Bu xususida quyidagi takliflarni berib o'tamiz:

1. Iqtisodiy diversifikatsiyani kuchaytirish: Xom ashyo eksportiga bog'liqlikni kamaytirish va sanoatni rivojlantirish uchun yangi texnologiyalarni joriy etish lozim. Yangi sanoat tarmoqlariga, masalan, yuqori texnologiyalar va raqamli iqtisodiyotga sarmoya kiritish kerak.

2. Inson kapitalini rivojlantirish: Ta'lim va kasb-hunar ta'limini takomillashtirish, mehnat bozorining talabiga mos ishchi kuchini tayyorlash, ish o'rinlarini yaratish va yoshlar uchun ko'proq imkoniyatlar yaratish zarur.

3. Inflyatsiya va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash: Inflyatsiyani nazorat qilish va milliy valyutaning barqarorligini saqlash uchun monetar siyosatni soddalashtirish, hamda davlat qarzining oshib ketishining oldini olish.

4. Tashqi savdo va investitsiyalarni rivojlantirish: Tashqi bozorlarga chiqishni kengaytirish, eksportni diversifikatsiya qilish va yangi investitsiyalarni jalb qilish uchun xalqaro iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish zarur.

5. Ekologik barqarorlikni hisobga olish: Iqtisodiy o'sish bilan birga ekologik ta'sirni kamaytirishga qaratilgan siyosatlarni amalga oshirish, ya'ni yashil energiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratish.

Ushbu takliflar yordamida, 2025-yil uchun iqtisodiy prognozlar yanada barqaror, samarali va uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini yaratishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

Byudjet loyihasi (2024) Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi. Fuqarolar uchun byudjet loyihasi.2025-yil pragnozi. 2025 loyiha 30 may 2024 14:22.

European Commission (2021). Sustainable Finance Disclosure Regulation.

Khokhlov D.I. (2022). Ilmiy tadqiqot materiallari. Nashr 67.

Kogan B.M. va Kravchenko D.V. (2020). Iqtisodiy barqarorlik prognozlari. O`quv qo`llanma.

Markova L.B. (2021). 2025-yilga mo`ljallangan iqtisodiy prognozlarni simulyatsion modeli. Toshkent nashr 34.

Matveeva, M. V. (2020). Impact of escrow accounts on construction rates. In IOP Conference Series: Materials Science and Engineering (Vol.880, No.012119).

Qaror (2024a) O`zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi №O`RQ-1012.

Qaror (2024b) O`zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi №O`RQ-1013.

Qaror (2024c) O`zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi №O`RQ-1014.

UN (2022) UN Principles for Responsible Investment (PRI).

Vasilenko S.V. (2023). "Global iqtisodiy aloqalar va tashqi savdo balansi" metodologiyasi. Nashr 13.